

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 283 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH



Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich

Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti

E-mail: zokirjon123boymirzayev23@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini rivojlantirishda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan, shuningdek kichik biznes korxonalarining iqtisodiy o'sishdagi o'rnini, ularning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirish omillari hamda tashqi bozorlarga chiqishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning innovatsion yondashuvlari, ilg'or texnologiyalarni joriy etish zarurati, sifat standartlariga rioya qilish va marketing strategiyalarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada kichik biznes korxonalarining eksport faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: biznes loyihasi, savdo balansi, kommunikatsiya, globallashuv strategiyasi, salohiyat, diversifikatsiya, liberallashtirish, kon'yunktura.

Abstract. The article analyzes the improvement of production processes for export-oriented products within the development of export activities of small business entities, as well as the role of small business enterprises in economic growth, factors that enhance their competitive production potential, and organizational and economic mechanisms for entering foreign markets. The article also examines innovative approaches to export-oriented production, the need to introduce advanced technologies, compliance with quality standards, and the improvement of marketing strategies. The article develops scientifically grounded proposals and recommendations for the more effective organization of export activities of small business enterprises.

Keywords: business project, trade balance, communication, globalization strategy, competencies, diversification, liberalization, market conditions.

Аннотация. В статье анализируются вопросы совершенствования процессов производства экспортоориентированной продукции в рамках развития экспортной деятельности субъектов малого предпринимательства, а также роль предприятий малого бизнеса в экономическом росте, факторы повышения их конкурентного производственного потенциала и организационно-экономические механизмы выхода на внешние рынки. Кроме того, в статье рассматриваются инновационные подходы к экспортоориентированному производству, необходимость внедрения передовых технологий, соблюдение стандартов качества и совершенствование маркетинговых стратегий. В статье разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по более эффективной организации экспортной деятельности предприятий малого бизнеса.

Ключевые слова: бизнес-проект, торговый баланс, коммуникация, стратегия глобализации, компетенции, диверсификация, либерализация, конъюнктура.

KIRISH

Kichik biznes korxonalari faoliyatida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish ularning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil va tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida mavjud bo'lgan eksport salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayapti. Tadbirkorlik sub'yektlari o'zlarida eksport salohiyatini shakllantirish bilan bir qatorda, ushbu salohiyatdan samarali foydalanishlari lozim. Shu sababli tadqiqot natijasi sifatida kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatida eksport mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan yo'nalishlarni ishlab chiqish zarur. Mazkur yo'nalishlarni ishlab chiqishdan oldin eksport salohiyatidan samarali foydalanish omillarini ta'sir ko'rsatish darajalariga ajratish maqsadga muvofiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


O'zbekistonda kichik biznes sub'yektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ko'plab iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib, ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar eksport imkoniyatlarini oshirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratgan. Jumladan, M. Sharifxo'jayev va S. G'ulomov kichik biznesni rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy mexanizmlari ahamiyatini tahlil qilib, ularni eksport salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida qayd etgan. A. O'lmasov va A. Vaxobov tadqiqotlarida kichik biznes sub'yektlarining ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali tashqi bozor faoliyatini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Sh. N. Zaynutdinov va A. Sh. Bekmurodov kichik tadbirkorlik korxonalarining eksport mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda yangi texnologiyalarni joriy etish zaruratini ta'kidlagan bo'lsa, D. N. Raximova va N. Q. Yo'ldoshev kichik biznes korxonalarining logistika va marketing strategiyalarini rivojlantirishni taklif qilgan. B. K. G'oyibnazarov va S. K. Salayev o'z izlanishlarida xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Iqtisodchi olimlarimiz A. Vaxobov, S. G'ulomov, B. Xodiev, N. Jumaev va D. Abdullayevlarning ilmiy asarlarida O'zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida eksportbop mahsulot ishlab chiqarish korxonalarining barqaror o'sishiga, tashqi bozorlarda raqobatbardosh mavqeini mustahkamlashga xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqot davomida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi: ma'lumotlarni guruhlash, umumlashtirish, taqqoslash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, anketa so'rovnomasi, abstrakt va mantiqiy fikrlash, shuningdek boshqa yordamchi usullar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi yo'nalishlarni quyidagilarga ajratish mumkin: biznes-loyihalash jarayonlarini takomillashtirish; moddiy va texnologik ta'minot jarayonlarini optimallashtirish; ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish; bozorlarni o'rganish va ularga kirib borish strategiyalarini yaratish; sotish jarayonlarini takomillashtirish hamda kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirish. Ushbu yo'nalishlar uch bosqichli modul ko'rinishiga keltirildi. Tadbirkorlik korxonalarida eksport mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi yo'nalishlarning uch bosqichli moduli yo'nalishlarning eksport salohiyatidan foydalanish darajasiga ta'siri bo'yicha guruhlandi. Bu guruhlashda biznes-loyihalash jarayonlarini takomillashtirish hamda moddiy va texnologik ta'minot jarayonlarini optimallashtirish yuqori o'rinlarni egalladi. Shu sababli ushbu yo'nalishlar uch bosqichli modulning birinchi pog'onasiga joylashtirildi. Ikkinchi bosqichda tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va faoliyatni amalga oshirishda kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirish belgilandi. Bozorlarni o'rganish va ularga kirib borish strategiyalarini yaratish, shuningdek mahsulotlar va xizmatlarni sotish jarayonlarini takomillashtirish uchinchi bosqichda amalga oshiriladi.



1-rasm. Eksport mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beruvchi yo'nalishlarni uch bosqichli moduli

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatida eksport mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanishi mumkin: tadbirkorlik korxonalarida biznes-loyihalash jarayonlarini o'tkazishda iqtisodiy–matematik modellardan foydalanib yaratilgan modullar va prognozlarga tayangan holda bu jarayonlarni amalga oshirish; bozor va iste'molchilar talabiga mos ravishda moddiy va texnologik ta'minot jarayonlarini tashkil etish; ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishda ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etish va mehnatni ilmiy tashkil etish yo'nalishlaridan foydalanish; xorijiy bozorlarni o'rganish va ularga kirib borish strategiyalarini yaratish, bir nechta strategiya ichidan eng maqbulini tanlab, amaliyotga joriy etish; ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish, bu jarayonda bozorda sotish strategiyalaridan foydalanish, talabni rejalashtirish va unga ta'sir ko'rsatish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish; tadbirkorlik korxonalarining eksport salohiyatidan samarali foydalanish va boshqarish yo'nalishida kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirish, aloqa kanallarini to'g'ri tanlash, axborotlarni kodlash, uzatish va qabul qilish jarayonlarida ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish hamda axborotni to'laqonli yetkazish va qabul qilishni ta'minlash; tadbirkorlik korxonalarini, shuningdek raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar yaratuvchilarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha omillarni shakllantirish; eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirib borish; tadbirkorlik korxonalarining xalqaro va mahalliy ko'rgazmalarda faol ishtirok etishini ta'minlash, ular tomonidan ham turli ko'rgazmalar tashkil etish; kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari xodimlarining faol marketing siyosatini yuritish jarayonini yo'lga qo'yish; eksportga mahsulot chiqarayotgan korxonalar uchun taqdim etilayotgan imtiyozlar tizimini tahlil qilish, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash va ularni ishga solish bo'yicha ishlarni tashkil etish.

Xorijiy bozorlarga kirib borishning har bir tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyasi o'z ustunliklari, kamchiliklari va cheklanishlariga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan eksportni rag'batlantirish va import o'rnini bosuvchi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda jahon bozorida asosiy eksport tovarlari bo'yicha qulay kon'yunkturaning saqlanib turishi natijasida mamlakatimizning to'lov balansi, xususan tashqi savdo balansi barqarorligi ta'minlanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan eksport bo'yicha viloyatlarning tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya boshqarmalari hamda bojxona boshqarmasi mutaxassisleri bilan hamkorlikda har o'n kunlik monitoring tizimi yo'lga qo'yilgan. Kichik biznes korxonalari faoliyatida eksport mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan yana

biri sifatida eksport salohiyatini boshqarishni takomillashtirishni keltirish mumkin, deb hisoblaymiz. Eksport salohiyatini boshqarish masalalari turli darajalarda — kichik biznes korxonalari, mintaqalar va mamlakatlar miqyosida amalga oshirilmoqda. Mikro darajada eksport salohiyatini oshirishdan asosiy maqsad iqtisodiy daromad hajmini ko'paytirish bo'lsa, mamlakatlar darajasida ushbu yo'nalishdagi tadbirlardan quyidagi natijalar kutiladi: mamlakat milliy iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish; tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish; globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan turli xavflarning kichik biznes korxonalari faoliyatiga salbiy ta'sirini tez fursatlarda bartaraf etish; xalqaro iqtisodiy munosabatlarda mos ravishda va faol ishtirok etish. Kichik biznes korxonalarining eksport faoliyati yangi bozorlarni va yangi iste'molchilarni qamrab olish hisobiga mahsulot hamda xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarishning kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va iqtisodiy faollikning ortishiga olib keladi.

Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xorijiy valyutaga sotilishi evaziga milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qiymatini ijobiy tomonga o'zgartirish imkoniyati tug'iladi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari tomonidan eksport salohiyatining shakllanishi va rivojlanishi, amalda undan foydalanish samaradorligiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratish mumkin. Faoliyat bo'yicha maqsadlar va ularning shakllanishi, kichik biznes korxonalarining ichki tuzilishi va boshqaruv tizimi, mansab va vazifalar, mahsulot hamda xizmatlarni yaratish texnologiyalari va faoliyat yurituvchi xodimlar — ichki omillar hisoblanadi. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari tomonidan eksport salohiyatining tashqi omillari ikki turga bo'linadi: boshqariluvchi va boshqarib bo'lmaydigan omillar. Boshqariluvchi omillar — korxonaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqarish va bozorga kirib borish, sifat va narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar bo'lib, ularning ta'sir doirasi va xususiyatini o'zgartirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari tomonidan eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar bo'lishi mumkin: birinchidan, korxonaning va uning mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari — kichik biznes subyektlarining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari, aloqa va kommunikatsiya salohiyati, faoliyat yurituvchi xodimlari, boshqaruv xodimlari hamda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozorida vujudga kelgan talabni qondirish imkoniyatlari; ikkinchidan, kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari tomonidan eksport salohiyati bo'yicha iqtisodiy imkoniyatlar, unga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma, mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan imtiyozlar; uchinchidan, faoliyat yuritilayotgan bozorning o'ziga xos jihatlari va maqsadli bozor xususiyatlari bo'lib, bunda bozor sig'imi, mavjud segmentlar ulushi, imkoniyatlar va talab xususiyatlari qamrab olinadi. Ushbu omillarni o'z vaqtida hisobga olish va rivojlantirish bo'yicha dasturlar qabul qilish natijasida kichik biznes korxonalarining eksport salohiyatini oshirishga erishiladi.

Kichik biznes korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish uchun ushbu faoliyatni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning turli usullari mavjud bo'lib, ular orasida moliyaviy qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesning eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning quyidagi usullarini ko'rsatish mumkin: kichik biznesning eksport faoliyatini kreditlash; eksport shartnomalarini sug'urtalash; eksport shartnomalari bajarilishini kafolatlash; kichik biznes korxonalari uchun maxsus moliyaviy imtiyozlar joriy qilish; eksportga chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy xaridorlarga uzoq muddatga kredit yoki lizing asosida sotish; eksportchi xaridorlarga uzoq muddatli kredit yoki lizing asosida xizmat ko'rsatish; eksportchi korxonalarining aylanma mablag'larini kreditlash. Eksport mahsulotlari ishlab chiqarishdagi mavjud muammolarni aniqlash va o'rganish, ularning yechimlarini topish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish mamlakatimizning eksport salohiyati oshishiga, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik darajasining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa jamiyat va aholi turmush farovonligini oshirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Prezidentining 2022-yil 30-sentyabrdagi "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–228-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6217257>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi PQ–4949-son "O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5219216>
3. Boymirzayev Z.M. Kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024-yil, dekabr, № 12.
4. Boymirzayev Z.M. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijga eksport qilish imkoniyatlari va mexanizmlari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi, Ilmiy jurnal, Vol. 4, No. 05 (2024). <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>
5. Boymirzayev Z.M. Kichik biznes korxonalari eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi. Muhandislik va iqtisodiyot jurnali, Elektron nashr, № 5, 2024-yil, 262-bet. <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz>



6. Boymirzayev Z.M. Tadbirkorlik sub'ektlari eksport faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali, ISSN 2181-7286, 5/2025.
7. Xakimov B.J., Alimov B.B., Xolmirzayev U.A., Polatov A.X. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013.
8. Abdulazizovich X.U.B. Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishining ustuvor yo'nalishlari. Journal of New Century Innovations, 74(2), 2025, 65–70.
9. Abdulazizovich X.U.B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent, 2023.
10. Ишимбаев Р.Н., Холмирзаев А.Х. Цифровизация малого и среднего предпринимательства в Узбекистане. Экономика и социум, 7(86), 2021, 304–307.
11. Kholmirzaev A. Ways of Small Business Development. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 2020, 162–167.
12. Kholmirzaev A.K. Criteria and Directions of Development of Small Business Activities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 2021, 730–735.
13. Xapizovich X.A. Directions of Poverty Reduction Based on the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(12), 2023, 632–636.
14. Кадилова Х., Мирзахаликов Б. Актуальные проблемы развития регионального финансового рынка и пути их решения. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 2023, 85–87.
15. Кадилова Х. Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(8), 2024.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100